



UDK: 371.13

Robiya MANNOPOVA,

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta'lim kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

E-mail: rmannopova1998@gmail.com

O'zMU professori H.Xudaykulov taqrizi asosida

DIDACTIC OPPORTUNITIES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE SKILLS (IN THE EXAMPLE OF LISTENING AND READING SKILLS)

Annotation

This scientific article focuses on researching the use of artificial intelligence in teaching foreign language skills. It outlines the didactic opportunities of artificial intelligence in developing foreign language skills and proposes an authorial approach to using AI chatbots for enhancing listening and reading skills.

Key words: Artificial intelligence, teaching foreign language skills, listening, reading, creativity, motivation, chatbots.

XORIJIY TIL KO'NIKMALARINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI (TINGLASH VA O'QISH KO'NIKMALARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ilmiy maqola xorijiy til ko'nikmalarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishni tadqiq etish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda sun'iy intellektning xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari bayon etilgan va II-chat-botlarni tinglab tushunish hamda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'llash bo'yicha mualliflik yondashuvi taklif etilmoqda.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, xorijiy til ko'nikmalarini o'qitish, tinglab tushunish, o'qish, ijodkorlik, motivatsiya, chatbotlar.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ НАВЫКАМ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ И ЧТЕНИЯ)

Аннотация

Научная статья посвящена вопросам исследования использования искусственного интеллекта в обучении навыкам иностранного языка, излагается дидактические возможности искусственного интеллекта в развитии навыков иностранного языка и предлагается авторский подход по применению ИИ-чат-ботов для развития навыков аудирования и чтения.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, обучение навыкам иностранного языка, аудирование, чтение, творчество, мотивация, чат-боты.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishining navbatdagi bosqichida sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim sohasida ham keng qo'llanila boshlandi. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari - bu kompyuter tizimlari tomonidan inson bajaradigan vazifalarni amalga oshirishga asoslangan texnologiyalar majmuasidir. Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator hujjatlari ushbu sohaga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi PQ-4996-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1] va "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli qarorlari shular jumlasidandir [2]. Bugungi kunda SI texnologiyalari xorijiy til o'qitish sohasida keng qo'llanilmoqda, chunki ular individual ehtiyojlarga mos ravishda ta'limni yanada samarali va shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil etishga imkon beradi [3]. Sun'iy intellekt (SI) inson ehtiyojlariga moslasha oladigan shaxsga yo'naltirilgan va samarali ta'lim tajribalarini yaratishga imkon beradigan didaktik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'limda sun'iy intellekt (AIED) bu o'qitish va bilim olish jarayonlarini yangilash hamda takomillashtirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini o'z ichiga olgan, rivojlanib borayotgan fanlararo sohadir [4]. Sun'iy intellektning ta'limdagi dolzarbligi, birinchi navbatda, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlash bilan bog'liq. Sun'iy intellekt talabalarining o'quv faoliyati natijalarini tahlil qilib, har bir talaba uchun individual ta'lim olish trayektoriyasini yaratishi, avtomatlashtirilgan baholash tizimi va talabalarining bilim olish faoliyatini samarali tashkil qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqishi bilan o'qituvchilar uchun yordamchi vositaga aylanmoqda. Oliy ta'limga sun'iy intellektning ta'siri ham qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. H.Crompton va D.Burke tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra sun'iy

intellekt texnologiyalari oliy ta'limda asosan quyidagi 5 ta maqsadda foydalaniladi: baholash, bashorat qilish, sun'iy intellekt o'qituvchiga yordamchi vosita sifatida, intellektual o'qitish tizimi (ITS) va talabalar ta'limini boshqarish maqsadida [5]. XI asr yangi jahon tartiboti oldiga ko'plab muammolarni qo'ydi. Sun'iy intellektning oliy ta'limga ta'siri va oliy ta'limning sun'iy intellektga ta'siri - o'rganishga arzigulik ikki muhim yo'nalish hisoblanadi [6].

Hozirgi zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358-sonli qarorida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish - sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalardan biri etib belgilangan. Shuningdek, sun'iy intellekt masofaviy ta'limni samarali tashkil etish va ta'limda innovatsion usullarni joriy etishda ham muhim o'rin egallamoqda va kelajakda uning ahamiyati yanada oshadi. Shu sababli ham, ta'lim muassasalari va o'qituvchilar uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va qo'llash yangi avlodni kelajakka tayyorlashning muhim qismiga aylanmoqda.

Mavzu dolzarbligini inobatga olgan holda ushbu maqolamizda xorijiy til ko'nikmalarini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga doir tadqiqotlarni tahlili asosida mavjud kamchilik va muammolarni o'rgangan holda, tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan sun'iy intellektning didaktik imkoniyatlari taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi xorijiy til ko'nikmalarini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini aniqlash, ularning

o'qitish jarayoniga ta'sirini tahlil qilish va o'quvchilarning til o'rganishdagi samaradorligini oshirish uchun samarali metodlarni taklif qilishdan iborat. Buning uchun qator vazifalar amalga oshirildi, jumladan sun'iy intellekt texnologiyalarining xorijiy til o'qitishdagi qo'llanilishi o'rganildi, xorijiy til ko'nikmalarini o'qitish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari aniqlandi va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda sun'iy intellekt texnologiyalarining moslashtirilgan didaktik imkoniyatlar tahlil qilindi.

Mavzuga doir tadqiqotlar tahlili. Tadqiqotlarimizda nazariy tahlil metodidan foydalanilgan holda, xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etishga doir tadqiqotlar tahlil qilindi. H.Crompton, A.Edmett, N.Ichaporla tomonidan tayyorlangan "Sun'iy intellekt va ingliz tilini o'qitish: tizimli adabiyotlar sharhi" [7], F. Karatash, F.Y. Abedi, F.O. Gunel, D.Karadeniz, Y. Kuzgun tomonidan olib borilgan "Xorijiy til o'qitishda sun'iy intellekt joriy etish: ChatGPTning xorijiy til o'rganuvchilarga ta'sirini o'rganish" [8] va C.Song va Y.Songning "Akademik yozish ko'nikmalari va motivatsiyani oshirish: EFL talabalar uchun sun'iy intellekt yordamida til o'rganishda ChatGPT samaradorligini baholash"[9] mavzusidagi tadqiqot ishlari o'rganilindi. Tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt yordamida dars jarayonini yanada samarali qilish, til o'rganishda, ayniqsa akademik yozish, gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual ehtiyojlarni inobatga olish va talabalarda xorijiy til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish bilan bir qatorda, sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi muammo va kamchiliklari ham o'rganilgan.

H.Crompton, A.Edmett, N.Ichaporla o'zlarining tadqiqotlarida sun'iy intellektning ingliz tilini o'qitish va o'rganishdagi integratsiyasini keng qamrovli joriy qilish masalalarini tadqiq etishgan. Ular ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektning qo'llanilishini tushunish uchun mavjud ilmiy tadqiqotlarni chuqur tahlil qilishgan va quyidagi eng ahamiyatli natijalarni ajratib ko'rsatishgan:

1. Geografik tarqalishi

Ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektidan foydalanishga doir ko'plab tadqiqotlar asosan Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerikada o'tkazilgan bo'lib, so'nggi yillarda nashrlar soni sezilarli darajada oshgan, bu esa ingliz tili o'qitish doirasida sun'iy intellekt ilovalariga qiziqish ortib borayotganini ko'rsatadi.

2. Ta'lim darajalari

Aksariyat tadqiqotlar oliy ta'lim miqyosiga qaratilgan bo'lib, kichik yoshdagi o'quvchilar ta'limidagi tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagani ta'kidlangan.

3. Til ko'nikmalarini rivojlantiruvchi sun'iy intellekt ilovalari

Tadqiqot shuni ko'rsatadi-ki, xorijiy til o'qituvchilari va talabalar til ko'nikmalaridan asosan gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanib kelishmoqda. Tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalarini yaxshilash uchun sun'iy intellektga asoslangan ilovalardan foydalanilgan, ammo ularning ta'sir darajasi qo'shimcha o'rganishni talab qiladi.

Tadqiqotlar sun'iy intellektning ingliz tilini o'qitishga integratsiyalashda bir qator qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Bularga, texnologik muammolar, ta'lim oluvchilarning motivatsiyasi yetarli shakllanmaganligini kiritish mumkin. Ba'zi sun'iy intellekt ilovalari kutilganidek ishlamaydi, bu esa ularning samaradorligini cheklaydi. Shuningdek, talabalarining bir qismi sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishga nisbatan qo'rquvni namoyon etishdi, bu esa o'zlashtirishga to'sqinlik qilgan.

Dr. W.Prappan va K.Prappanlar sun'iy intellektning ESL/EFL darslaridagi ta'sirini salbiy yoki ijobiy ekanligini tadqiq qilar ekanlar, shuni ta'kidlaydilar: "Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha muassasa yagona nizomi mavjud bo'lmagani sababli, har bir o'qituvchi darsi uchun sun'iy intellektidan foydalanishga doir alohida yondashuvlar ishlab chiqishimiz zarur. Talabalar sun'iy intellektga tayanish o'rniga o'z fikrlarini ifodalashga harakat qilishlari, biz o'qituvchilar esa sun'iy intellekt vositalarini samarali tarzda qo'llash orqali amaliyotimizni moslashtirish va shu yo'l bilan talabalarga xorijiy

til yozish ko'nikmasida o'z salohiyatlarini oshirishga yordam berishga intilishimiz zarur" [10].

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib mualliflar quyidagilar zarurligini ta'kidlaydilar:

- o'qituvchilarni tayyorlash: O'qituvchilar sun'iy intellekt texnologiyalarini o'zining o'qitish amaliyotiga samarali joriy etish uchun sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishlari lozim;

- etika meyorlarini ishlab chiqish: xorijiy til o'qitish sharoitlarida ma'lumotlar xavfsizligi va sun'iy intellektidan axloqiy foydalanish bo'yicha aniq ko'rsatmalarni belgilash juda muhim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turli geografik hududlar va ta'lim darajalari bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazishni, ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilar va tinglash kabi retseptiv til ko'nikmalariga e'tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz. Ushbu tadqiqot sun'iy intellektning til ko'nikmalarini oshirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlash orqali ingliz tili o'qitish jarayonini didaktik ta'minotini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Biroq, xorijiy til o'qitishda sun'iy intellektning afzalliklarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun texnologik, axloqiy va pedagogik muammolarni hal qilishning muhimligi ham aniqlandi.

F. Karatash, F.Y. Abedi, F.O. Gunel, D.Karadeniz, Y. Kuzgun tomonidan olib borilgan "Xorijiy til o'qitishda sun'iy intellekt joriy etish: ChatGPTning xorijiy til o'rganuvchilarga ta'sirini o'rganish" mavzusidagi tadqiqotlarda ChatGPTning xorijiy tillarni o'rganishda ta'lim vositasi sifatidagi ta'siri o'rganilgan. "Qualitative Case study" metodi asosida o'tkazilgan tadqiqotda Turkiyadagi universitetlardan birining 13 nafar talabalar ishtirok etgan. To'rt hafta davomida talabalar xorijiy til o'qituvchisi rahbarligida turli xil o'quv mashg'ulotlarida ChatGPT bilan shug'ullanishdi.

Natijalar ChatGPT ta'lim oluvchilarning o'quv tajribasiga, xususan, yozish, grammatika va lug'at boyligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ta'kidlaydi. Shuningdek, u o'zining qulayligi va katta didaktik imkoniyatlarga egaligi tufayli ularning motivatsiyasi va faolligini oshirdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, til o'rganishda sun'iy intellektning quyidagi yutuqlari mualliflar tomonidan ta'kidlangan:

- birinchidan, ChatGPT til o'rganuvchilarga yangi g'oyalar taqdim etish, fikr-mulohazalar bildirish hamda ularni turli grammatik tuzilmalar va so'z boyligi bilan tanishtirish orqali ularning ingliz tilida yozish mahoratini oshirishga yordam berishi mumkin;

- ikkinchidan, ChatGPT yordamida talaba va xorijiy til o'qituvchilari vaqtdan samarali foydalanish imkoniyatini bergan. Talabalarni qiziqtirgan savollariga tezkorlik bilan javob beradi va bu ularning vaqtini tejaydi. Boshqa tadqiqotlar ham buni qo'llab-quvvatlab, ChatGPT yordamida til o'rganish foydali ma'lumotlarni taqdim etishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi va o'qituvchilarga o'quv materiallari, ish varaqalari va baholashlarni yaratish orqali vaqtni tejash imkonini beradi;

- uchinchidan, ChatGPT yordamida til o'rganish madaniy va ijodiy ta'lim tajribalarini o'zlashtirish imkoniyatini taqdim etishi aniqlandi. Shuningdek, ChatGPT til o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini, shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishda sezilarli darajada yordam berishi mumkinligi ta'kidlanadi.

- to'rtinchidan, tadqiqot ishtirokchilari ChatGPT yordamida yozish ko'nikmalarini rivojlangani aniqlangan. Ular hikoya, esse yozish jarayonida hikoyalarning turli xil ijodiy yakunlarini yaratish orqali o'zlarining ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilgan.

Ushbu tadqiqotda xorijiy tillarini o'qitishda ChatGPTdan foydalanishning bir qancha ilmiy muammolari ham ko'rsatilgan:

- sun'iy intellektga bilim olish jarayonida haddan tashqari bog'lanib qolish: O'quvchilar sun'iy intellekt vositalariga uzviy bog'lanib qolishlari mumkin, bu esa tilni mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin;

- kasbiy muloqot yetishmasligi: ChatGPT suhbat amaliyotini taqdim etsa-da, u madaniy kontekst va hissiy ifoda

kabi real hayotiy insoniy o'zaro ta'sirlarning nozik jihatlarini to'liq takrorlay olmaydi;

ta'lim maqsadlariga erishishdagi noaniqlik: Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan javoblar vaqti-vaqti bilan noaniqliklarni o'z ichiga olishi yoki o'quv ma'lumotlarida mavjud bo'lgan noxolisliklarni aks ettirishi mumkin, bu esa o'quvchilarni chalg'itishi mumkin;

texnik va dasturiy qiyinchiliklar: ChatGPTdan foydalanish uchun tezkor internet va kompyuter qurilmalar barcha uchun, ayniqsa kam resursli sharoitlarda, imkonsiz bo'lishi mumkin;

o'qituvchilarning moslashuvi: O'qituvchilar sun'iy intellekt vositalarini o'z o'qitish amaliyotiga joriy etishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa malaka oshirish va o'zlarini ustida ishlashni talab qiladi.

Bu muammolar shuni ko'rsatadiki, ChatGPT kabi sun'iy intellekt vositalari o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilsa-da, ular an'anaviy o'qitish usullarini to'liq egallamasdan, balki ularga qo'shimcha ravishda qo'llanilishi lozim.

C.Song va Y.Songning "Akademik yozish ko'nikmalari va motivatsiyani oshirish: EFL talabalari uchun sun'iy intellekt yordamida til o'rganishda ChatGPT samaradorligini baholash" mavzusidagi tadqiqot ishida ta'limda, ayniqsa ingliz tilini chet tili (EFL) sifatida o'rganuvchilar uchun sun'iy intellektning transformatsion salohiyati o'rganilgan. Aralash usullardan foydalangan holda, tadqiqot ChatGPTning talabalarining akademik yozish ko'nikmalari va motivatsiyasiga ta'sirini baholaydi.

Tahlil va natijalar. Xorijiy tadqiqotlar tahlili sun'iy intellekt texnologiyalarining qator didaktik imkoniyatlarga egaligini ilmiy asoslaydi. Bular qatoriga yozuv ko'nikmalarining yaxshilanishi, motivatsiya ortishi, turli xil qarashlarning mavjudligini kiritish mumkin. Binobarin, sun'iy intellekt yordamida ta'lim olgan talabalar an'anaviy ta'lim sharoitlaridagi o'quvchilarga nisbatan yozuvni tashkil etish, izchillik, grammatika va lug'at boyligida sezilarli yaxshilanishlarni namoyish etganlar. ChatGPTdan foydalanish o'quvchilarning yozma topshiriqlar bilan shug'ullanish motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, o'quv jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilgan. Ko'p ishtirokchilar til o'rganishda sun'iy intellektning innovatsion rolini tan olgan bo'lsalar-da, ba'zilar sun'iy intellekt vositalariga haddan tashqari bog'lanib qolish va uning natijalarini kontekstual noaniqligidan xavotir bildirdilar.

Shunday qilib, sun'iy intellekt texnologiyalari qator didaktik imkoniyatlarga egaligini qayd etish mumkin. Birinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, ya'ni individual o'rganish tezligi va qobiliyatlarini tahlil qilib, har bir talaba uchun moslashtirilgan o'quv materiallarini taqdim etadi. Bu didaktik yondoshuvni shaxsiylashtirishga imkon beradi, chunki har bir o'quvchi o'zining ehtiyojlariga mos ravishda bilimlarni o'zlashtiradi.

Ikkinchidan, interaktiv o'quv materiallari taqdim etilishida yangi didaktik imkoniyat paydo bo'ladi, ya'ni sun'iy intellektga asoslangan o'quv materiallari o'quvchilarni faollashtiradi, chunki ular har bir o'quvchining darajasi va

qobiliyatiga mos ravishda tanlanadi. Bu o'quvchilarga nafaqat tilni o'rganishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, sun'iy intellekt texnologiyalarini xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarda qo'llash samara berishini ta'kidlash mumkin:

Talaffuz va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish

Sun'iy intellekt tizimlari, masalan, nutqni tanish dasturlari va talaffuzni tahlil qilish texnologiyalari yordamida, o'quvchilarga talaffuz va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu didaktik vositalar o'quvchilarning nutq madaniyatini yaxshilaydi va tilni mukammal o'zlashtirishda yordam beradi.

O'qitish jarayonining tahlilini amalga oshirish

SI texnologiyalari o'qituvchilarga o'quvchilarning o'qish jarayonini kuzatib borishga imkon beradi. Bu esa o'qituvchilarga har bir talabaning yutuqlari va qiyinchiliklari haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etadi, shu orqali o'qituvchi o'quvchilarning ehtiyojlarini yanada samarali qondirishi mumkin.

Tavsiyalar. Bizning fikrimizcha, talabalarda akademik yozish ko'nikmalari va motivatsiyani oshirish uchun ChatGPT da katta didaktik imkoniyatlar mavjud. Uni ChatGPT'ning chet tili sifatida ingliz tilini o'rganayotgan talabalarining akademik yozuv ko'nikmalarini va motivatsiyasini oshirishdagi salohiyatida ko'rish mumkin.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadi-ki, amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda sun'iy intellektning xorijiy til o'qitishda asosan urg'u yozish, gapirish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, boshqa til ko'nikmalari, xususan, tinglab tushunish va o'qish kabi ko'nikmalarni shakllantirish va o'qitishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarli emasligini ko'rsatdi. Ushbu ko'nikmalar har bir til o'rganuvchi uchun muhim bo'lib, ularni rivojlantirish xorijiy til bilish darajasini baholashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Shuning uchun, biz ushbu tadqiqotimizda sun'iy intellekt texnologiyalaridan tinglab tushunish va o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda foydalanishning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratdik.

Bizning fikrimizcha, sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar hozirda o'qituvchilarning eng tezkor yordamchisiga aylangan. Talabalarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda savollar tuzish, savollarga javob berish, ularning qiziqishiga mos matnlar yaratish va shu kabi vazifalarni tez va samarali bajara oluvchi chatbotlar tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalarini o'qitishda keng foydalanilishi mumkin.

Chatbot – bu sun'iy intellekt algoritmlari asosida ishlaydigan virtual yordamchi bo'lib, inson bilan tabiiy tilda suhbatlashuvchi botdir.

Chatbotlar tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalarini o'qitishda interaktiv, moslashuvchan va qiziqarli usullarni taqdim etishi mumkin. Quyidagi jadvalda ingliz tilida tinglab tushunish va o'qish ko'nikmasini o'qitish jarayonida darsni samarali qilish maqsadida xorijiy til o'qituvchisi uchun chatbotlardan foydalanish imkoniyatlari keltirilgan.

№	Tinglab tushunish ko'nikmasi	O'qish ko'nikmasi
1.	Chatbotlar real hayotiy dialoglarni taqlid qilib, talabalarga turli vaziyatlarda (masalan, kafeda ovqat buyurtma qilish, job interview) tinglash amaliyotini taklif qiladi.	Talaba qiyin so'zga duch kelganda, chatbot uning ma'nosini, sinonimlarini va jumladagi ishlatilishini tushuntirib berishi mumkin.
2.	Sun'iy intellekt asosidagi botlar talaffuzni baholab, xatolarni tuzatib borishi mumkin.	Sun'iy intellekt matnni ovozi o'qib berib, talaffuz bilan yozuv o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga yordam beradi.
3.	Chatbotlar turli ingliz aksentlari yordamida matnlarni o'qib berishi mumkin.	Chatbot matndan so'ng savollar berib, o'quvchining tushunish darajasini tekshirishi mumkin.
4.	Chatbot biror audio parcha eshittirib, so'ng savollar orqali talabaning tushunish darajasini tekshirishi mumkin.	Sun'iy intellekt maqola, kitob yoki yangiliklarni ta'lim oluvchining qiziqish va darajasiga qarab tavsiya qilishi mumkin.

1-jadval. Tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalarini o'qitishda chatbotlardan foydalanish imkoniyatlari

Xulosa. Sun'iy intellekt xorijiy til o'qitishda gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Ko'plab tadqiqotlar va texnologiyalar bu yo'nalishlarga

e'tibor qaratgan bo'lsa-da, tinglash va o'qish ko'nikmalari ham tilni puxta o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tinglash til o'rganishda fundamental ko'nikma bo'lib, nutqni tushunishni va

talaffuzni rivojlantirishni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt yordamida ovozli materiallar, podkastlar va interaktiv audio-tahlil vositalaridan foydalangan holda ta'lim oluvchilar tinglash bo'yicha mahoratini oshirishlari mumkin. O'qish esa xorijiy til so'z boyligini kengaytirish, grammatikani chuqur o'zlashtirish va mazmunni tushunishning asosi hisoblanadi. Sun'iy intellekt orqali matnni tahlil qilish va tushunishga yordam beradigan dasturlar hamda interaktiv o'qish mashqlarini amalga oshirishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, gapirish va yozish bilan bir qatorda tinglash va o'qish ko'nikmalarining sun'iy intellekt yordamida rivojlantirilishi xorijiy til o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Integratsiyalangan yondashuv esa til o'rganishni yanada samarali qiladi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt texnologiyalari xorijiy til ko'nikmalarini o'qitishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ularning didaktik imkoniyatlari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish, o'qitish jarayonini interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilish, va talaffuz, tinglash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, texnologiyalardan samarali foydalanish uchun mavjud muammolarni hal qilish va tizimlarning ishonchligini ta'minlash zarurdir. Bu yo'nalishda kelajakda yanada samarali va sifatli til o'qitish imkoniyatlari yaratish uchun tadqiqotlar davom ettirilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli Qarori.
3. Hwang, G. J., Xie, H., Wah, B. W., & Gašević, D. (2020). Vision, Challenges, Roles and Research Issues of Artificial Intelligence in Education. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 1.
4. Almasri, F. Exploring the Impact of Artificial Intelligence in Teaching and Learning of Science: A Systematic Review of Empirical Research. *Res Sci Educ* 54, 977–997 (2024). <https://doi.org/10.1007/s11165-024-10176-3>.
5. Crompton, H., Burke, D. Artificial intelligence in higher education: the state of the field. *Int J Educ Technol High Educ* 20, 22 (2023). <https://doi.org/10.1186/s41239-023-00392-8>
6. United Nations. (2018). Sustainable Development Goals ... Sustainable Development Knowledge Platform.
7. Crompton, H., Edmett, A., Ichaporia, I. Artificial intelligence and English language teaching: A systematic literature review. British Council, 2022.
8. Karatas, F., Abedi, F., Gunyel, F., Karadeniz, D., Kuzgun, Y. Incorporating AI in foreign language education: An investigation into ChatGPT's effect on foreign language learners. *Education and Information Technologies*, 29, 2024.
9. Song, C., & Song, Y. (2023). Enhancing academic writing skills and motivation: Assessing the efficacy of ChatGPT in AI-assisted language learning for EFL students. *Frontiers in Psychology*, 14, 1260843. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2023.1260843>.
10. Praphan, W., Praphan, K. (2023). AI technologies in the ESL/EFL writing classroom: The villain or the champion? *Journal of Second Language Writing*. Volume 62.